



ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI

N.X. Begaliyev

magistrant,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Elektron pochta manzili: mq9698@mail.ru

Kalit	soʻzlar:	Anotatsiya: : Barcha ijtimoiy fanlar kabi etnologiya fani
etnologiya, etnografiya, etnos, indentiklik, etnomadaniy identiklik, entik jarayonlar, etnoslararo jarayonlar, xoʻjalik-madaniy tiplar.		ham bir qator oʻziga xos atama va tushunchalardan keng foydalanadi. Mazkur atama va tushunchalarning barchasini bir maqola doirasida taʼriflash va tahlil etish juda qiyin. Ushbu maqolada, biz quyida ularning ilmiy muomalada eng koʻp qoʻllanayotganlari haqidagina fikr yuritimiz.

THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH

N.X. Begaliyev

master student,

Tashkent State University of Oriental Studies

Email address: mq9698@mail.ru

Key words: ethnology, ethnography, etnos, identity, ethno-cultural identity, ethnic processes, inter-ethnic processes, economic-cultural types.	Abstract: Ethnology, like all social sciences, makes extensive use of a number of specific terms and concepts. It is very difficult to define and analyze all these terms and concepts in one article. In this article, we will consider below only those that are most commonly used in scientific practice.
--	--

“Etnologiya” va “Etnografiya” tushunchalari, ularning oʻzaro aloqadorligiga toʻxtalsak. Maʼlumki, yaqin oʻtmishda fan “Etnografiya” deb nomlanib, ilmiy tadqiqot markazlari ham shu atama bilan yuritilgan edi. Biroq oʻtgan asrning 90-yillaridan eʼtiboran ushbu fanga nisbatan “Etnografiya” atamasi bilan birga “Etnologiya” atamasi ham qoʻllaniladigan boʻldi.

Mazkur fanning metodologik masalalariga bagʻishlangan qator ishlardan koʻrinadiki, “Etnologiya” va “Etnografiya” tushunchalarini aynan bir tushunchalar tarzida qabul qilish ham toʻgʻri emas. Negaki, agar anʼanaviy “etnografiya” u yoki bu etnosga oid materiallarni toʻplab, sistemalashtirib va uni koʻproq tavsiflab bersa, “etnologiya” etnos haqidagi barcha

ma'lumotlarni nazriy jihatdan tahlil qiladi va bu xusuda umumiy xulosalarni chiqaradi.¹ Demak, "Etnologiya" tushunchasi "Etnografiya" tushunchasiga nisbatan nafaqat kengroq tushuncha balki bu har ikki tushuncha mazmun-mohiyati jihatidan bir fanning ikki mustaqil, ayni vaqtda o'zaro uzviy bog'liq qismlarining nomlanishidir.

Ma'lumki, etnografiya fanida eng ko'p qo'llaniladigan tushuncha bu – **"etnos"** tushunchasidir. Zero, fanning asosiy tadqiqot obyekti ham etnosning o'zidir. "Etnos" atamasi dastlab qadimgi grek tilida uchraydi. Taxminan miloddan avvalgi VI-V asrda bu so'z kelib chiqishi grek bo'lmagan urug' va qabilalarga nisbatan qo'llanilgan. Aynan shu ma'noda bu atama rim madaniyati va lotin tilida ham namoyon bo'ldi.

XVIII asrning oxirlariga qadar "etnos" tushunchasi nihoyatda chegaralangan tarzda istemolda bo'ldi. Faqat XIX asrdan e'tiboran bu atama ilmiy adabiyotlarda "xalq" ma'nosida kengroq qo'llanila boshlandi.

Shuni takidlash o'rinliki, etnologiyada "etnos" tushunchasi, uning tariflanishi borasida bir qator o'ziga xos qarashlar – konsepsiyalar ilgari surilgan.

Rus etnografiyasida "etnos" tushunchasini ilk bor ta'riflash XX asrning 20-yillarida yuz berdi. 1923-yilda Xitoyning Shanxay viloyatida yashovchi rus emigrant S.M.Shirokogorov o'zining "Этнос: исследование основных принципов изменения этнических и этнографических явлений" deb nomlanuvchi maqolasida ilk bor etnos tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan edi: "... Etnos – bu bir tilda so'zlashuvchi, kelib chiqishi bir ekanligini tan oluvchi, urf-odatlar majmuasi hamda umumiy turmush tarziga ega bo'lgan kishilar guruhidir".²

S.M. Shirokogorovdan keying rus etnologlari tomonidan etnos nazariyasiga oid bir qator yangi konsepsiyalar taklif qilindi. S.M.Shirokogorov konsepsiyasining e'tiborli tomoni shundaki, u tomonidan etnosga berilgan ta'rif XX asrning 60-70-yillaridagi ta'rifi ko'p jihatlarlari bilan mos tushadi. Xususan, 1980-yillarda akademik Y.V.Bromley rahbarligida Sobiq Ittifoq FA Etnografiya instituti xodimlari tomonidan etnosga berilgan quyidagi ta'rifning S.M.Shirokogorov konsepsiyasiga asoslanganligi yaqqol ko'rinadi: "Etnos muayyan hudud, til, kelib chiqish, madaniyat umumiyli, o'z-o'zini etnik anglash va o'z etnik nomiga hamda o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan kishilarning tarixan tarkib topgan guruhidir".³

"Etnik jarayonlar" va **"etnoslararo jarayonlar"** tushunchalarini tahlil qilish jarayonida odatda, "Etnik jarayonlar" deganda u yoki bu etnos bilan bog'liq kechayotgan barcha o'zgarishlar tushuniladi. Ya'ni "etnik jarayonlar" tushunchasi keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, etnos bilan bog'liq genetic, lingvistik, psixologik, xo'jalik-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni qamrab oladi. Etnik jarayon ikki xil ko'rinishda, ya'ni bo'linib ketishga hamda birlashishga moyil jarayonlarda namoyon bo'ladi. Etnik jarayonlarning birinchi ko'rinishi uchun ilgari bo'linmasdan kelgan etnosdan bir necha etnik guruhlarining yoki uning ma'lum bir bo'lagining ajralib chiqib, alohida mustaqil etnosni tashkil topishi xarakterlidir.

Birlashtiruvchi etnik jarayonlar esa aksincha, turli mustaqil etnoslarning o'zaro yaqinlashuvi (integratsiyalashuvi), birikishi (konsolidatsiyalashuvi) va aralashib, qorishib ketishi (assimiliyasiyalashuv) holatlarida namoyon bo'ladi. Demakki, etnik jarayonning bu ko'rinishi mazmun-mohiyati bilan turli mustaqil etnoslar orasidagi munosabatlardan iborat ekan, u holda bu jarayonlarni yaxlit holda etnoslararo jarayonlar deb tushunish va atash xato bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadigan nazariy xulosa shundan iboratki, etnoslararo jarayonlar etnik jarayonlarning o'ziga xos birlashtiruvchi ko'rinishidir.

¹ А.П.Садохин, Т.Г. Грушевская. Этнология. М., 2000, С.28; Этнология. Краткий этнологический словарь. М.: фонд «Социальный мониторинг». 1994

² Широкогоров С.М Этнос: Исследование основных принципов изменения этнических и этнографических явлений // Изв. Восточного факультета Дальневосточного университета (Шанхай). 1923 XVIII. Т. I. С.13.

³ Бромлей Ю.В Очерки теории этноса. М., 1983. С.58; Этносоциальные процессы: теория, история, современность. М., 1987. С.14

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, etnologiya fanida "etnoslararo munosabatlar" tushunchasi bir vaqtning o'zida ham tor ma'noda, ham keng ma'noda qo'llaniladi. Bu tushuncha keng ma'noda turli etnoslar orasidagi o'zaro munosabatlarga nisbatan, tor ma'noda esa har xil etnosga mansub kishilarning yakka tartibdagi muloqotlariga nisbatan qo'llaniladi.

Etnologlar tomonidan "millatlararo" atamasidan ko'ra ko'proq "etnoslararo" atamasi qo'llanib kelinadi, negaki etnologiya fanining tadqiqot predmeti nafaqat millat, balki etnosning barcha tarixiy shakllari (urug', qabila, elat, xalq) hisoblanadi.

Identiklik atamasi. Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar sohalaridagi tadqiqotlarda **identity** atamasi keng qo'llanilmoqda. Ushbu atama lotincha *identicus* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bir-biriga aynan o'xshash, aynan bir xil" degan ma'nolarni anglatadi. Ilmiy istemolda esa identiklik tushunchasi umuman inson o'zini ma'lum bir guruhga mansubligini anglashi va u orqali o'zining sotsial-madaniy makondagi o'rnini aniqlashi hamda atrof-muhitga moslashishini tushunib yetishini bildiradi.

Etnomadaniy identiklik o'ziga xos murakkab hodisa bo'lib, insonning ma'lum bir etnik jamoaga mansubligini anglash jarayoni sanaladi. Bu mavjud etnik aloqalardagi odamlarning ongiga qaratilgan g'oyadir va etnonim shaklida o'zini namoyon qiladi. Bu shaxsni, boshqa bir guruh bilan taqqoslash, bir guruhni hissiy va kognitiv ravishda aniqlash, egallab olingan ijtimoiy mavqeliklarni lokallashtirish va muhim ijtimoiy vazifalarni rivojlantirish jarayonidir. Identifikatsiyani tadqiq qilish va rivojlantirish jarayoni sifatida ham tavsiflash mumkin.

Etnik identifikatsiya etnik guruhning shakllanishini va rivojini, ta'minlaydigan etnik jamiyatning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda etnik o'ziga xoslik shaxsning ijtimoiy o'ziga xosliklaridan biri yoki uning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqiladi.⁴ Hozirda har bitta xalqning o'z etnomadaniy identikligi mavjud. Lekin vaqt o'tishi bilan insonlar bir e'tiqoddan boshqasiga o'tadi, xoriy tillarni o'rganadi, yangi qadriyatlar va e'tiqodlarni qabul qiladi, o'zlarini yangi ramzlar bilan tanishtiradi, yangi turmush tarziga moslashadi. Yosh avlod madaniyati ko'pincha oldingi avlodlarning madaniyatidan tubdan farq qiladi. "Ba'zan jamiyatlar madaniyatida global o'zgarishlar yuz beradi. Madaniyatning o'ziga xosligi o'zgartirilishi mumkin, ammo shaxsiyat etnik o'zgarishlarga duchor bo'lmaydi. Shuning uchun ular o'rtasida aniq bir farq bo'lishi kerak."⁵

Etnologiyada qo'llanilayotgan atama va tushunchalarning kata bir qismi etnos turmush tarzi bilan bog'liq atama va tushunchalardir. Bu o'rinda "**xo'jalik-madaniy tiplar**" nomi bilan ilmiy iste'molga kiritilgan tushuncha haqida batafsilroq to'xtalish joiz. Xo'jalik madaniy-tiplar" ilmiy konsepsiyasiga ilk bor S.P.Tolstov tomonidan asos solingan. U o'zining bir qator asarlarida O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlariga xos xo'jalik-madaniy tiplarni aniqlagan va ta'riflab bergan edi.⁶

Xo'jalik-madaniy tiplar deganda muayyan tabiiy-geografik sharoitda va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bir xil darajasida yashovchi etnoslar uchun xarakterli bo'lgan xo'jalik va madaniyatlarning tarixan tarkib topgan majmui tushuniladi. Yanada aniqroq aytganda, "xo'jalik-madaniy tiplar" tushunchasi shunchaki xo'jalik tiplar tushunchasidan farq qilib, quyidagi jihatlardan bilan unga nisbatan kengroq ma'no kasb etadi:

Birinchidan, o'xshash geografik muhitda yashovchi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish jihatdan bir xil darajada turgan turli xalqlarda ham, garchi ular boshqa hududlarda yashasalar-da, aynan bir xildagi xo'jalik-madaniy tip tarkib topishi mumkin;

Ikkinchidan, u yoki bu hududda mavjud bo'lgan xo'jalik-madaniy tip ma'lum tarixiy izchillik kasb etadi, ya'ni aniq bir tarixiy sharoitda bir tip asosida boshqasi rivojlanishi ham mumkin;

⁴ Горбунова А.А.Максимова С.Г. — Этническая идентичность в оценках населения регионов России // Социодинамика. — 2017. — № 8.

⁵ Хантингтон С. Кто мы?: Вызовы американской национальной идентичности. — М., 2004.

⁶ Очерки первоначального ислама // СЭ. 1932. №2 С.163-164

Uchinchidan, har bir xo‘jalik-madaniy tip uchun xos bo‘lgan madaniyat xususiyatlari, avvalo, ushbu tip mavjud bo‘lgan geografik sharoitdagi xo‘jalik yo‘nalishi bilan belgilanadi. Ya’ni etnos xo‘jalik faoliyatining asosiy yo‘nalishi ko‘p jihatdan uning turmush tarzini va u bilan bog‘liq muhim etnografik jihatlarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak yuqorida ko‘rib o‘tilgan va boshqa shu kabi etnologiyada qo‘llanilib kelinayotgan atama va tushunchalarning mazmun-mohiyatini yaxshi anglash, ulardan o‘z o‘rnida to‘g‘ri foydalanish olib borilayotgan tadqiqot uchun shubhasiz kata ahamiyatga ega.